

INSON QADRI ULUG': U ERTAGA EMAS,UZOQ KELAJAKDA EMAS, AYNAN BUGUN O'Z HAYOTIDAN ROZI VA MAMNUN YASHASHI KERAK!



Xabaringiz bor so'nggi yillarda "Open byudjet" tashabbusli loyihasi doirasida ko'plab qishloq va mahallalardagi yo'l transport infratuzilmasi, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha ob'ektlarida qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Buloqboshi tumanida ham, "Open byudjet" dasturiga jami 3 796 950 ming so'm mablag' ajratilgan bo'lib, 5 ta MFY hududida ta'mirtalab ichki xo'jalik yo'llari ovoz berish yo'li orqali tanlab olindi.

Ayni kunlarda Buloqboshi tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan dastur asosida 5 ta MFY hududida jami 10 635 km uzunlikdagi ko'chalar kiritilgan bo'lib, hozirda 4 ta mahallada 8,471 km qismida asfaltlash ishlari amalga oshirilib, qolgan 2,164 qismida esa asfaltlash ishlari davom etmoqda.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Axborot xizmati